

JISMONIY JARAYON FE’LLARINING SINONIMIYASI

Ergasheva Feruzaxon Abdusalim qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti
gumanitar fanlar fakulteti o‘zbek tili va
adabiyoti yo‘nalishi 2-kurs magistranti

R.Rasulov.

Ilmiy rahbar: f.f.d.proff.

Annotatsiya: Maqolada jismoniy jarayon fe’llarining sinonimiyasi, sinonim fe’llarning qo’llanishi haqida ma’lumot beriladi.

Kalit so‘zlar: Sinonimlar va ularning qo’llanishi, jismoniy jarayon fe’llarining sinonimiyasi.

KIRISH

Sinonimlar-talaffuzi, yozilishi har xil, birlashtiruvchi ma’nosi bir xil (umumiy) bo‘lgan, qo‘shimcha ma’no nozikligi emotsional bo‘yog‘i, qo‘llanishi kabi bir qator xususiyatlari bilan o‘zaro farqlanadigan so‘zlardir. Ana shunday umumiy (birlashtiruvchi) ma’no bilan o‘zaro bog‘lanuvchi so‘zlar qatori sinonimlar deb ataladi. Sinonimik qator ikki yoki undan ortiq so‘zdan iborat bo‘ladi. Masalan: gul, chechak; boplamoq, qoyil qoldirmoq, qoyillatmoq, o‘xshatmoq, o‘rinlatmoq, kelishtirmoq, do‘ndirmoq, qiymoq, eshmoq, mondalamoq, yasamoq. Ko‘p ma’noli so‘zlar bir emas, ikki yoki undan ortiq ma’nosida sinonimik qator tashkil etishi mumkin. Masalan: aynimoq, buzilmoq so‘zlari “sof holatini, iste’molga yaroqliligini yo‘qotmoq, iste’molga yaroqliligi yomonlashmoq” ma’nosi bilan bir sinonimik qatorga va “xulq –atvori, biror vazifa ishdagi xatti-harakati yomon (salbiy) tomonga o‘zgarmoq” ma’nosi bilan ikkinchi sinonimik qatorga birlashadi.

Aynimoq, buzilmoq.1. Sof (normal) holatini, iste'molga yaroqliligini yo'qotmoq. Aynimoq iste'molga layoqatdarajasi biroz yomonlashgan holat uchun ham, butunlay layoqatsiz holat uchun ham qo'llana oladi. Buzilmoq, asosan, iste'molga yaroqsiz holga kelganlikni ifodalaydi, lekin shu ma'noda ham aynimoq so'ziga nisbatan kam qo'llanadi. Yaroqsizlik darajasi boshqa vositalar yordamida aniq ifodalanaveradi: sal aynibdi, aynib ketibdi kabi.

2. Xulq- atvori, biror vazifa, ishdagi xatti-harakati yomon (salbiy) tomonga o'zgarimoq. Aynimoq xulq-atvor yoki biror ish- vazifada ijobiy fazilatning yo'qolishini ifodalay oladi. Bunda salbiy tomonga o'zgarish juda sezilarsiz darajada yoki kuchli darajada bo'lishi mumkin. Buzilmoq asosan xulq-atvordagi yomon tomonga o'zgarishni ifodalaydi va bunda salbiy o'zgarish sezilarli, kuchli darajada bo'ladi. Vaqtida siz bilan faxrlanganmiz. Ammo keying yillarda aynib qoldingiz, dimog'ingiz ko'tarilib ketdi.(Uyg'un)

Bir qarichilikdan dutorni sevaman .Bir qo'shni kelinchakdan o'rgangach edim. “Ko'p chalaverma, buzilib ketasan” -derdi onam boyoqish, aytgani keldi. Lekin ayb dutorda emas.(Oybek)⁵²

Ayrim darsliklarda sinonimlarga shunday ta'rif keltiriladi. Bir umumiy ma'noni ifodalovchi so'z yoki qo'shimchalarga sinonimlar deyiladi. O'zaro sinonimik munosabatda bo'lgan so'z va qo'shimchalar sinonimlar uyasi yoki sinonimlar qatori deyiladi. Lug'aviy sinonimlar bir umumiy ma'noni bildirsa ham, lekin ularning ma'no darajasi, ijobiy yoki salbiy bahoga egaligi, ma'lum uslubga xoslanishi bilan bir-biridan faqrlanadi.Nutqiy jarayonda so'zlovchi maqsadiga muvofiq ravishda sinonimlar qatoridagi so'zlardan birini tanlaydi. Tilimizda bir ma'noni bir necha so'zlar yordamida ifodalash mumkin. Masalan, inson bosh qismining old tomoni yuz, bet, aft, bashara, nusxa, turq, chehra, jamol, diydor, oraz, uzor, ruxsor, singari so'zlar orqali ifodalanadi. Keltirilgan sinonimik qatordagi oraz, uzor, ruxsor, chehra so'zlarida ijobiy baho, badiiy uslubga xoslanish belgisi bo'lsa, bet,

⁵² A.Hojiyev.O'zbek tili sinonimlarining izohli lug'ati.Toshkent-1974.21-bet.

aft, bashara, nusxa, turq so‘zlarida salbiy baho munosabati mavjud va bu salbiy baho ularda darajalanib, kuchayib boradi. Betga nisbatan aftda salbiy baho kuchliroq, turqda esa hammasidan kuchliroq ifodalanadi. Sinonimlar qatori a’zolaridan nutq jarayonida o‘rinli foydalanish so‘zlovchining maqsadini aniq, ravon va ta’sirchan ifodalashda katta ahamiyatga ega.⁵³ Yuqorida keltirilgan sinonimik qatorga Azim Hojiyevning “O‘zbek tili sinonimlarining izohli lug‘ati”da quyidagicha izoh berilgan. Yuz, bet, aft, bashara, chehra, jamol, diydor, oraz, uzor, ruxsor. Kishi boshining old qismi, old tomoni. Bet so‘zi ma’nosi, qo‘llanishi bilan yuz so‘ziga juda yaqin bo‘lib, yuz so‘ziga nisbatan salbiy ma’noga ega. Bashara so‘zida salbiy ma’no aft so‘zidagiga nisbatan ham kuchli. Chehra ijobiy ma’noga ega. Jamol so‘zida ijobiy ma’no chehra so‘zidagiga nisbatan ham kuchli bo‘lib, bu so‘z asosan poetik uslubga xos. Jamol so‘zi “husn”, “chiroy” ma’nosida ham qo‘llanadi, Diydor so‘zi Ko‘rishmoq, to‘ymoq kabi bir-ikki so‘z bilangina qo‘llanadi. Uzor, oraz, ruxsor eskirgan kitobiy so‘zlar hisoblanadi.⁵⁴

Sinonimlar qatoridagi bir so‘z bosh so‘z (asosiy so‘z) hisoblanadi. Bosh so‘z, odatda, hozirgi adabiy tilga mansubligi, emotsional bo‘yoq, uslubga ko‘ra betarafligi va shu kabi xususiyatlari bilan shu qatordagi boshqa so‘zlardan farqlanadi hamda xuddi shu xususiyatlariga ko‘ra tilda boshqalariga nisbatan keng qo‘llanadi. Masalan, chiroyli, go‘zal, husnli, husndor, xushro‘y, ko‘hli, zebo, suluv, sohibjamol... Sinonimlar qatorida chiroyli so‘zi shunday belgilarga ega va bosh so‘z hisoblanadi. Qolgan so‘zlar esa har biri o‘ziga xos belgi xususiyati bilan boshqalaridan farqlanadi: go‘zal so‘zi belgini kuchli (yuqori) daraja bilan ifodalaydi; barno, zebo so‘zlari ko‘proq kitobiy uslubga ega, suluv so‘zi esa nisbatan kam qo‘llanadi va hokazolar. Nutqda sinonimlarning har biridan ularga xos belgi xususiyatlarni hisobga olgan holda foydalanish muhim ahamiyatga ega. Sinonimlar shaxs, narsa, belgi, xususiyat, voqeaning bir necha nom bilan aytilishidir. Sinonimlar til boyligi bo‘lib, avvalo shaxs va predmetlarning eng nozik ma’no

⁵³ A.Nurmonov va boshqalar, Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Toshkent-2013. 227-bet.

⁵⁴ A.Hojiyev. O‘zbek tili sinonimlarining izohli lug‘ati. Toshkent-1974. 234-bet

bo‘yoqlarini ifodalash uchun xizmat qiladi.⁵⁵ Yuqoridagi sinonimlar qatoriga Azim Hojiyevning “O‘zbek tili sinonimlarining izohli lug‘ati”da quyidagicha izoh berilgan. Chiroyli, go‘zal, husndor, husnli, xushro‘y, ko‘xlik, ko‘rkam, barno, suluv, zebo, latofatli, sohibjamol. Husni odatdagidan ortiq, xunukning aksi. Chiroyli uslubiy jihatdan betaraf. Bu so‘z odamga, boshqa jonli narsalarga, shuningdek, jonsiz narsalarga nisbatan ham qo‘llanaveradi. Go‘zal odamga va jonsiz narsalarga nisbatan qo‘llanadi. Bu so‘zda belgi darajasi kuchli. Husndor, xusnli so‘zlari nisbatan kam qo‘llanadi. Xushro‘y, ko‘hlik faqat odamga nisbatan qo‘llanadi va “yoqimlilik” ma‘nosi bor. Barno, suluv, zebo, so‘zlari ham odamga nisbatan qo‘llanadi. Suluv kam qo‘llanadi. Zebo kitobiy. Ko‘rkam asosan jonsiz narsalarga, kam darajada odamga nisbatan qo‘llanadi.⁵⁶

Abdulla Qodiriy romanlarida jismoniy jarayon fe’llarining ma‘nodoshlik (sinonimik) qatorini ham uchratishimiz mumkin. Azim Hojiyevning “O‘zbek tili sinonimlarining izohli lug‘ati”da ushbu fe’llarni quyidagicha izohlangan. Quyida bularga ayrim misollarni keltirib o‘tamiz.

1. Ozmoq, oriqlamoq, ozg‘inlamoq, etini yo‘qotmoq. Ozmoq ozg‘in xolga kelmoq. Ozmoq asosan odamlarga nisbatan, oriqlamoq esa hayvonlarga nisbatan qo‘llanadi. Ozg‘inlamoq kam qo‘llanadi. Etini yo‘qotmoq ham ozmoq ma‘nosida qo‘llanib, Abdulla Qodiriy asarlarida uchratish mumkin. Qiyoslang. Kumushhoningning ozgani sog‘inchniki. Burung‘i to‘lalig‘i ketib ozg‘inlangan va lekin bu ozg‘inlik uning husniga kamchilik bermay bilaks yuqorilatgan. 6. Shaxidbek zakotchimiz ham shu bir necha kunning orasida bir chorak etini yo‘qotayozdi.

2. Ko‘karmoq, bo‘zarmoq. Ko‘karmoq tabiiy rangini yo‘qotib, oq-ko‘kish rangga kirmoq (asosan kishi tana a‘zolariga nisbatan ishlatiladi). Bo‘zarmoq so‘zida belgi darajasi ko‘karmoq so‘ziga nisbatan kuchli. Qiyoslang. Ul titrar edi, ko‘karar edi, to‘lg‘anar edi. Mulla Abdurahmon Safar bo‘zchini mehmonxonaning dahliziga kirishdayoq ko‘rib qoldi va sariq tusi bo‘zarib ketkan xolda ichkariga kirdi.

⁵⁵ Nuriddinova, Z. Sinonimlar va ularning uslubiy xossalari. Yosh tadqiqotchi jurnali. 631-bet.

⁵⁶ A. Hojiyev. O‘zbek tili sinonimlarining izohli lug‘ati. Toshkent-1974. 223-bet.

3.Kulimsiramoq, iljaymoq. Ovoz chiqarmay ko‘z,lab harakati bilan kulgu ifoda qilmoq, miyig‘ida kulmoq. Kulimsiramoq va iljaymoq so‘zlari uslubiy jihatdan betaraf hisoblanadi. Qiyoslang. Ko‘rsam bo‘ladir...-dedi va kulimsiragansimon. Bir turlik iljayib yer tagidan Hasanaliga ko‘z tashladi.

4.Og‘rimoq, dardmand, betob bo‘lmoq, tobi yo‘q. Kasallik ta‘sirida bo‘lmoq, nosog‘lom xolatda bo‘lmoq, sog‘lomligini yo‘qotmoq. Og‘rimoq odam va boshqa jonivorlarga nisbatan qo‘llanaveradi. Og‘rimoq ko‘proq oddiy so‘zlashuvga xos. Betob bo‘lmoq odamga nisbatan qo‘llanadi. Dardmand kasallik ta‘sirida qolgan, tez-tez kasallanuvchi.⁵⁷ Tobi yo‘q ham kasal bo‘lmoq ma‘nosida qo‘llanib Abdulla Qodiriy asarlarida uchratishimiz mumkin. Qiyoslang. Nasim o‘n beshlar yoshlar chamasida chechak kasali bilan og‘ridi va o‘sha kezlarda davosiz hisoblangan bu kasaldan o‘nglanmay vafot qildi. Marg‘ilonga kelganimizga yigirma besh kun, bir oylar chamasi fursat o‘tdi. Shundan beri Otabek dardmand. Bir ikki kundan beri tobi yo‘q.

XULOSA

Nutqimizda sinonim so‘zlardan foydalanish til boyligini ko‘rsatish bilan bir qatorda, uning eng nozik ma‘no bo‘yoqlarini ifodalash, nutqning ta‘sirchan va ifodali bo‘lishi uchun xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

- 1.A.Hojiyev.O‘zbek tili sinonimlarining izohli lug‘ati.Toshkent-1974
- 2.A.Nurmonov va boshqalar.Hozirgi o‘zbek adabiy tili .Toshkent-2013
- 3.A.Qodiriy. O‘tkan kunlar. Toshkent. 2016.
- 4.A.Qodiriy.Mehrobdan chayon.Toshkent.2019.
5. Nuriddinova.Z Sinonimlar va ularning uslubiy xossalari.Yosh tadqiqotchi jurnali. 4-son.2022.

⁵⁷ A.Hojiyev.O‘zbek tili sinonimlarining izohli lug‘ati.Toshkent-1974. 119-bet.